



Standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi

Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash, metrologiya sohasi

TARMOQ MALAKA RAMKASI



TOSHKENT - 2026

“Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash, metrologiya sohasi” tarmoq malaka ramkasi 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasi shakli” va Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug’i bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga asosan Standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash, metrologiya sohasi

TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

UZ-TMR-2026-T1.0-024



1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Ushbu Tarmoq malaka ramkasi O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi hamda Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, "Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash, metrologiya" sohaslariga oid malaka darajalarining yagona tizimini belgilaydi. TMR mazkur sohadagi mutaxassislar uchun belgilangan malaka darajalarini yagona tizim asosida tasniflaydi, shuningdek, kasbiy standartlarni ishlab chiqish, sohada malakani baholash hamda mutaxassislarning malakasini milliy va xalqaro darajada tan olish tizimlari uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash va metrologiya sohaslarining TMR mehnat bozori va Standartlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish, muvofiqlikni baholash va metrologiya sohaslarida ta'lim tizimini bog'lovchi vosita bo'lib, malaka darajalarining umumlashtirilgan tavsifi va ularga O'zbekiston Respublikasi hududida erishishning asosiy yo'llarini belgilaydi.

Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash, metrologiya yo'nalishlari bo'yicha TMRning asosiy maqsadi kasbiy malaka darajalarini aniqlash, tizimlashtirish va ularni milliy malaka tizimi bilan uyg'unlashtirishdan iborat.

TMRning asosiy vazifalari:

tarmoq doirasida kasbiy faoliyat turlariga mos malaka darajalarini yagona me'yoriy mezonlar asosida belgilash va ularni tizimli muvofiqlashtirish;

amaldagi va yangi shakllanayotgan kasb va lavozimlarni malaka darajalari asosida guruhlash, ularning mehnat faoliyati doirasini aniqlashtirish hamda kasbiy yo'nalishdagi xaritani ishlab chiqish;

sohaga oid kasbiy standartlar, ta'lim mazmuni va baholash mezonlarini ishlab chiqish uchun zarur metodik va konseptual asos yaratish;

tarmoqlararo o'zaro bog'liq kompetensiyalar va malaka turlarini aniqlash orqali mehnat resurslarining mobilligini ta'minlash;

mutaxassislarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash hamda tasdiqlash jarayonlari uchun ilmiy-uslubiy asos yaratish;

mehnat bozori ehtiyojlariga javob beruvchi, kasbiy jihatdan tayyorlangan, moslashuvchan va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qilish;

kasbiy standartlarni ishlab chiqishda, malaka darajalarini belgilashda va kadrlar tayyorlash strategiyasini shakllantirishda tarmoqdagi amaldagi hamda istiqbolli texnologik tendensiyalarni inobatga olgan holda kasbiy faoliyatga qo'yiladigan zamonaviy talablarni aniqlash.

Ushbu TMRda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

davlat nazorati organi – texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirishga vakolatli bo'lgan davlat boshqaruvi organi;

etalon – muayyan kattalik birligining o'lchamini boshqa o'lchash vositalariga o'tkazish maqsadida uni qayta hosil qilish va saqlash uchun mo'ljallangan o'lchash vositasi;

guruh – iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT (2.1-tahrir) bo'yicha iqtisodiy faoliyatning keng sohasini o'z ichiga olgan faoliyat turi;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

kichik sinf – sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

metrologiyaga oid faoliyat – o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash, o'lchash uslublari va vositalari, shuningdek talab qilinadigan aniqlikka erishish usullari bilan bog'liq bo'lgan faoliyat;

milliy standart – O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining O'zbekiston standartlar instituti tomonidan qabul qilingan hamda keng jamoatchilik uchun ochiq bo'lgan standart;

muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya – ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi yoki import qiluvchi muomalaga chiqariladigan mahsulotning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlaydigan hujjat;

muvofiqlikni deklaratsiyalash – mahsulotning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini majburiy ravishda tasdiqlash shakli;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

savdodagi texnik to'siq – mahsulot kelib chiqqan mamlakatga (joyga) qarab mahsulotga va muvofiqlikni baholash tartib-taomillariga doir majburiy talablarning turlicha qo'llanilishi oqibatida mamlakatlar o'rtasidagi savdoda yuzaga keladigan to'siq;

sinash laboratoriyasi – sinashni amalga oshiruvchi yuridik shaxs yoki uning tarkibiy bo'linmasi;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning o'rtacha darajada (tor doirada) aniqlangan turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

standart – faoliyatning har xil turlariga yoki ularning natijalariga taalluqli bo'lgan, umumiy va ko'p marta foydalanish uchun qoidalarni, umumiy prinsiplarni yoki tavsiflarni belgilaydigan hamda muayyan sohada tartibga solishning eng maqbul darajasiga erishishga qaratilgan hujjat;

standartlashtirish – muayyan sohada tartibga solishning eng maqbul darajasiga erishishga qaratilgan, haqiqatda mavjud bo'lgan yoki kutilayotgan vazifalarga nisbatan umumiy va ko'p marta foydalanish uchun qoidalarni belgilaydigan faoliyat.

TMRni ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 3-noyabrdagi "Standartlashtirish to'g'risida"gi O'RBQ – 800-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktyabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrda "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2024-yil 30-martda "Standartlashtirish faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi VM-177-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-aprelda "O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 348-son qaror;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyunda "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2025-yil 17-iyulda "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi" (IFUT-2.1), O'zMSt 640:2025;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2025-yil 17-iyulda Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK 2025), O'zMSt 641:2025;

Asosiy qisqartmalar:

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi;

ISO – Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot;

OIML – Qonunchilik metrologiyasi xalqaro tashkilot;

MGS – Davlatlararo standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish kengashi;

MAS – Standartlashtirish bo'yicha mintaqalararo uyushmasi;

COOMET – Yevro-Osiyo milliy metrologiya institutlari hamkorligi;

DM – Davlat muassasasi;

TQ – Texnik qo'mita;

PTB – Germaniya Federal fizik-texnik instituti;

KSZ – kichik sanoat zonalari;

MBO – muvofiqlikni baholash organlari;

MX – Metrologik xizmat;

IAF – Xalqaro akkreditatsiya forumi;

IAF MLA – akkreditatsiyani o'zaro tan olish to'g'risidagi xalqaro shartnoma;

GLOBAK – Global akkreditatsiya hamkorligi;

GQII – Global sifat infratuzilmasi indeksi;

GOST R – Rossiya Federatsiyasining davlat standarti;

Ts – tashkilot standarti;

STQ – standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita;
TSE – Turk standartari instituti;
CMC qator – Kalibrlash va o'lchash imkoniyatlari;
CNAC – Xitoy muvofiqlikni baholash bo'yicha milliy akkreditatsiya xizmati;
BGSA – Belarus davlat akkreditatsiya markazi;
NACI – Eron Milliy Akkreditatsiya Markazi;
GSP+ (Generalized Scheme of Preferences Plus) – bu Yevropa Ittifoqining rivojlanayotgan mamlakatlarga beradigan imtiyozli savdo rejimi;
O'zMSt – O'zbekiston milliy standarti;
O'zMSt EK OOH, O'zMSt ISO, O'zMSt YEN, O'zMSt ASTM – xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqilgan va qabul qilingan O'zbekiston milliy standartlarining abbreviaturalari;
VIN (World Manufacturer Identifier) kodi – transport vositasining identifikatsiya raqami
MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori.

2. Tarmoq malaka ramkasining pasporti

Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash, metrologiya sohalar – Bu milliy hamda xalqaro miqyosda mahsulot, xizmat va jarayonlarning sifati, xavfsizligi, ishonchliligi va raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yagona tizimdir.

Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash, metrologiya sohasidagi TMR quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan.

N – Professional, ilmiy va texnik faoliyat.

O'zbekiston Respublikasida Standartlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish, sohalaridagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi.

T/r	Seksiya	Bo'lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1	N seksiya – Professional, ilmiy va texnik faoliyat	71 Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi faoliyat	71.2 Texnik sinovlar va tahlillar	71.20 Texnik sinovlar va tahlillar	71.20.0 Texnik sinovlar va tahlillar
2		72 Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar	72.1 Tabiiy fanlar va injeneriya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va eksperimental ishlanmalar	72.10 Tabiiy fanlar va injeneriya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va eksperimental ishlanmalar	72.10.0 Tabiiy fanlar va injeneriya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va eksperimental ishlanmalar

3		74 Boshqa professional, ilmiy va texnika faoliyati	74.9 Boshqa toifalarga kiritilmagan professional, ilmiy va texnik faoliyat	74.90 Boshqa toifalarga kiritilmagan professional, ilmiy va texnik faoliyat	74.90.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan professional, ilmiy va texnik faoliyat
---	--	---	--	---	---

TMR quyidagi kasbiy faoliyat turlari va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

T/r	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1	11122	Yuqori lavozimli davlat xizmati xizmatchilari
2	11200	Markaziy tashkilotlar, muassasalar va korxonalarning rahbarlari
3	12190	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan moliyaviy-iqtisodiy va ma'muriy ishlar bo'yicha boshqaruvchilar, b.g.k.
4	13211	Ishlab chiqarish sanoati sohasida ishlab chiqarish va foydalanish bo'limlari rahbarlari
5	14390	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan boshqa soha xizmatlari rahbarlari, b.g.k.
6	21415	Metrologiya va standartlashtirish bo'yicha muhandislar
7	21462	Foydali qazilmalarni boyitish bo'yicha muhandislar
8	31111	Kimyo sohasidagi texniklar
9	31119	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan kimyo va fizika fanlari sohasida texniklar, b.g.k
10	31193	Metrologiya va standartlashtirish bo'yicha texniklar
11	72149	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan konstruksion material tayyorlovchilar va montaj qiluvchilar, b.g.k

3.Tarmoq tahlili

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-fevraldagi "Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-41-son farmoni bilan O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) Vazirlar Mahkamasi bo'ysunuviga o'tkazildi va quyidagilar Agentlik faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib belgilandi:

 xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan milliy muvofiqlikni baholash, sinov hamda o'lchash natijalarini eksport bozorlarida tan olish borasida hamkorlikni kengaytirish;

 mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarishda xalqaro standartlar va texnik reglamentlarni joriy etish orqali ularning zamonaviy talablarga muvofiqligini ta'minlash va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha manzilli choralar ko'rish;

 sifatni boshqarishning zamonaviy tizimlarini, birinchi navbatda, eksport qiluvchi korxonalarda keng joriy etish va mahsulotlarni texnik reglamentlar va standartlashtirishga doir normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini ta'minlash;

 milliy qonunchilikni, texnik tartibga solish, muvofiqlikni baholash instrumentlari va standartlashtirishga doir normativ hujjatlarni Jahon savdo tashkiloti talablariga uyg'unlashtirish;

 mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) sifati va xavfsizlik talablariga rioya etilishi hamda iste'molchilarning huquqlarini noto'g'ri o'lchash natijalarining salbiy oqibatlaridan himoya qilish choralarini ko'rish;

 texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning majburiy talablari, o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishi va to'g'riligi ta'minlanishi, majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga amal qilinishi yuzasidan davlat nazoratini tashkil etish va uning amalga oshirilishini muvofiqlashtirish;

 texnik jihatdan tartibga solish, shu jumladan standartlashtirish va metrologiya sohalaridagi qonunchilik hujjatlari buzilishining oldini olish va profilaktikasini ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish;

 texnik jihatdan tartibga solish sohasini raqamlashtirish orqali samaradorlik va natijadorlikka erishish, tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatiladigan davlat xizmatlari turlarini kengaytirish, shaffof va korrupsiyadan xoli samarali tizimni joriy etish;

 texnik jihatdan tartibga solish sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish.

Agentlik tuzilmasida:

 "O'zbekiston ilmiy sinov va sifat nazorati markazi" davlat muassasasi;

 "O'zbekiston milliy metrologiya instituti" davlat muassasasi;

 "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" davlat muassasasi;

 "O'zbekiston standartlar instituti" davlat muassasasi;

Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi faoliyat olib boradi.

Agentlikning tizim tashkilotlari tomonidan amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq quyidagi xizmatlar ko'rsatiladi.

“O'zbekiston ilmiy sinov va sifat nazorati markazi” davlat muassasasi:

mahsulotlarni va xizmatlarni sertifikatlashtirish;

ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda xalqaro standartlar talablari asosida joriy etilgan menejment tizimlarini sertifikatlashtirish;

mahsulotlar sinovlarini amalga oshirish;

xalqaro standartlar talablari asosida o'quv kurslari, xalqaro miqyosida seminar va konferensiyalar tashkil etish;

hududiy filiallarining faoliyatiga rahbarlik qilish va uni muvofiqlashtirish;

Markazning laboratoriyalarini rivojlantirish xamda ularning Sertifikatlashtirish Milliy tizimida akkreditatsiyalanishiga tayyorlanishini ta'minlash;

standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sinash masalalari bo'yicha Markazning kadrlar tarkibini doimiy tizimli tayyorgarligi va malakasini oshirish chorasini ta'minlash;

eksportga mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarga standartlar, mahsulotni sertifikatlash, yorliqlar, qadoqlash va boshqa parametrlar yuzasidan xalqaro va mamlakatlararo talablar bo'yicha maslahat xizmatlarini ko'rsatish;

“O'zbekiston milliy metrologiya instituti” davlat muassasasi:

O'lchash vositalarini kalibrlashdan o'tkazish;

O'lchash vositalarini qiyoslashdan o'tkazish;

Sinov vositalarini metrologik attestatsiyadan o'tkazish;

Malaka tekshirish provayderi;

O'lchash vositalarini metrologik attestatsiyadan o'tkazish turini tasdiqlash maqsadida o'lchash vositalarini davlat sinovlaridan o'tkazish;

“O'zbekiston akkreditatsiya markazi” davlat muassasasi;

Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o'tkazish.

“O'zbekiston standartlar instituti” davlat muassasasi:

standartlashtirish bo'yicha tarmoq texnik qo'mitalarini tashkil etish, ularning faoliyatini to'xtatib turish va tugatish haqida manfaatdor taraflarning murojaatlariga binoan, shuningdek, o'z tashabbusiga ko'ra qarorlar qabul qilish, ushbu qo'mitalar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va xalqaro amaliyot asosida ularni rivojlantirishga ko'maklashish;

standartlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalarida kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash;

standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarni, shu jumladan, xo'jalik yurituvchi subyektlar va boshqa tashkilotlarning buyurtmalari bo'yicha shartnoma asosida ishlab chiqish va realizatsiya qilish;

standartlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalarida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish, standartlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash tizimlarining ishlashini va rivojlanishini ta'minlashda ishtirok etish va mazkur sohalarda ilmiy-texnik axborotni tarqatish, shuningdek, ularni xalqaro, davlatlararo va xorijiy mamlakatlarning milliy tizimlari bilan uyg'unlashtirish;

standartlashtirish bo'yicha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini ifodalash;

xorijiy mamlakatlarning standartlashtirish bo'yicha milliy organlari bilan bitimlar tuzish va ular bilan hamkorlikni amalga oshirish;

savdodagi texnik to'siqlar bo'yicha axborot markazining faoliyatini amalga oshirish.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi:

texnik jihatdan tartibga solish, shu jumladan, standartlashtirish va metrologiya sohalaridagi qonunchilik hujjatlari buzilishining oldini olish va profilaktikasini ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish;

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va qonunchilikda belgilangan majburiy talablarga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlarni aniqlash ishlarini tashkil etish;

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning majburiy talablari, o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishi va to'g'riligi ta'minlanishi, majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga amal qilinishi yuzasidan davlat nazoratini tashkil etish;

texnik jihatdan tartibga solish, muvofiqlikni baholash va metrologiya sohasida huquqbuzarliklarni aniqlash yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish va ularni keltirib chiqarishga asos bo'luvchi sabab va sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko'rish;

amaldagi texnik reglamentlar, standartlar va qonunchilik talablariga nomuvofiq bo'lgan mahsulotlarni belgilangan tartibda savdodan chiqarish.

Agentlik va uning tizimidagi tashkilotlar o'z vazifalarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-iyuldagi 370-sonli hamda 2019-yil 14-martdagi 220-sonli qarorlarida belgilangan standartlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalarini rivojlantirish yuzasidan ishlab chiqiladigan strategiya va istiqbolli dasturlarga muvofiq amalga oshiradi.

Tarmoqda milliy malakalar tizimini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan chora tadbirlar.

Ishchi guruhi tomonidan mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) ga muvofiq xalqaro talablari asosida, jumladan, Avstraliya, Germaniya, Koreya, Turkiya kabi xorijiy davlatlar tajribasi asosida to'liq qayta ko'rib chiqildi hamda hujjat loyihasini ishlab chiqishda Germaniya, Turkiya va Qozog'iston kabi davlatlarning tajribalaridan foydalanildi.

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tizimidagi korxona va tashkilotlar ular tomonidan amalga oshirilgan va rejalashtirilgan ishlar:

“O'zbekiston milliy metrologiya instituti” DMda ko'rsatilayotgan xizmatlar holati:

Milliy etalonlar bazasini rivojlantirish, laboratoriyalarni modernizatsiya qilish hamda infratuzilma yaratish bo'yicha 2024-yilda moliyalashtirilgan jami 11 ta etalonlari keltirilib, etalonlar soni 41 taga yetkazildi.

Bundan tashqari, laboratoriyalarning moddiy-texnik bazasini yanada takomillashtirish maqsadida jami 126 ta (*shundan 109 tasi hududiy filiallar*) o'lchash vositalari va yordamchi uskunalari xarid qilindi.

Xalqaro qonunlashtiruvchi metrologiya tashkiloti (OIML) hujjatlari asosida metrologik me'yor va qoidalarni qabul qilish reja-jadvaliga asosan jami 20 ta milliy standart qabul qilindi.

O'lchashlar yagona birlikda bo'lishni ta'minlash borasida jami 11 ta milliy standartlar (*ionlovchi nurlanish, kimyo, vaqt va chastota, geometriya, elektr va magnetizm, qonunlashtiruvchi metrologiya*) ro'yxatga olindi.

Xalqaro tarozi va o'lchovlar byurosining (BIPM) bazasida Respublikamizning kalibrlash va o'lchash imkoniyatlari to'g'risidagi yozuvlari (*SMS-qatorlar*) radiatsiya hamda vaqt va chastota yo'nalishi bo'yicha qo'shimcha 5 taga kengaytirilib, ularning soni 10 taga yetkazildi.

Shuningdek, *SMS-qatorlar* sonini yanada kengaytirish maqsadida KOOMET hamda AFRIMETS doirasida 11 ta yangi (*vaqt va chastota yo'nalishi, harorat, elektr va magnetizm, massa*) solishtirish loyihasiga qo'shilib, ishtirok etilayotgan solishtirish loyihalari 37 taga yetkazildi.

2025-yilning 23–24 sentabr kunlari Mintaqaviy metrologiya tashkilotlari va BIPM birlashgan qo'mitasining (JCRB) navbatdagi yig'ilishi ilk bor Toshkentda o'tkazildi.

Bundan tashqari, o'tgan yilning 24-25-aprel kunlari COOMET Prezidenti Kengashining navbatdagi 40-yig'ilishi ilk bora O'zbekistonda bo'lib o'tdi.

Shuningdek, COOMETning 20-21-avgust kuni COOMETning “Uzunlik va burchak” texnik qo'mitasining (TQ 1.5) 22-yig'ilishi, 26–28-avgust kunlari “Akustika, ultratovush, tebranish” texnik qo'mitasi (TQ 1.2) 19-yig'ilishi hamda 6-10 oktabr kunlari “Elektr va magnetizm” (TQ 1.3)ning navbatdagi – 19-yig'ilishi Toshkentda o'tkazildi.

Institut kalibrlash laboratoriyalarda ISO/IEC 17025 xalqaro standartga asosan joriy etilgan sifat tizimi qo'shimcha o'lchash yo'nalishlari (*akustika, vaqt va chastota, g'adr-budirlik, kuch va kuch momenti, gaz va suyuqliklar sarfi, kichik hajm, dozimetri, kontaktli termometriya*) bo'yicha kengaytirildi.

Rossiyaning “ROSSTANDART” Agentligi bilan birgalikda “O'zbekiston Respublikasida metrologiya sohasida texnik ko'mak ko'rsatish” Memorandumi doirasida 4 turdagi 20 ta radiatsion xavfsizlik yo'nalishidagi uskuna qabul qilindi.

Germaniyaning Fizik-texnik instituti (PTB) bilan “Milliy sifat infratuzilmasini rivojlantirish” loyihasining 2-fazasini amalga oshirish borasida Berlin shahrida Germaniya Federal fizika-texnik instituti (PTB) bilan hamkorlikda kelishuv imzolandi.

Xodimlar malakasini hamda ilmiy salohiyatni oshirish bo'yicha institutning 87 nafar (*Rossiya 10, Malayziya 2, Fransiya 6, Qozog'iston 7, Xitoy 20, Belarus 4, Qirg'iziston 3, Gruzija 3, Tailand 8, Chexiya 6, Slovakiya 4, Turkiya 1, Singapur 1, Armaniston 5, Eron 1, Avstraliya 1, Ozarbayjon 1, Koreya 1, Gresiya 3*) mutaxassisleri xorijning yetakchi metrologiya institutlarida seminar hamda o'quv kurslari orqali malaka oshirdi.

Ilk bor ISO 17034 Xalqaro standart talablariga muvofiq standart namunalarni ishlab chiqaruvchisi sifatida milliy akkreditatsiyadan o'tkazildi.

Respublika sanoat sohalarida aniq o'lchashlarga bo'lgan ehtiyojni yanada qamrab olish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi (*bosim, harorat*), Andijon (*hajm*), Buxoro (*harorat*), Bekobod (*geometriya*), Jizzax (*massa*), Qashqadaryo (*bosim*), Namangan (*harorat*), Surxondaryo (*elektr*), Sirdaryo (*elektr*), Farg'ona (*geometriya*), Qo'qon (*massa, geometriya*), Xorazm (*harorat, optik-fizik*) Olmaliq (*bosim*) va Navoiy (*geometriya*) filiallari kalibrlash laboratoriyalari, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi (*harorat*), Andijon (*bosim, geometriya*), Bekobod (*hajm, sarf va bosim*), Jizzax (*kuch va qattqlik*), Qashqadaryo (*vaqt va chastota*), Navoiy (*fizik-kimyo, geometriya, elektr*), Namangan (*fizik-kimyo*), Samarqand (*xarorat, bosim va sarf, massa, fizik-kimyo, hajm*), Sirdaryo (*geometriya, massa*), Farg'ona (*harorat*), Xorazm (*fizik-kimyo*), Qo'qon (*radiotexnika, geometriya, massa, fizik-kimyo, harorat*) Chirchiq (*harorat*), Surxondaryo (*elektr*) va Olmaliq (*fizik-kimyo*) filiallarining qiyoslash laboratoriyalari akkreditatsiya doirasi kengaytirildi.

Shuningdek, institutning Massa o'lchash bo'limining massa, Radiotexnik kattaliklar, ionlanuvi nurlanish va putur yetkazmasdan tekshirish bo'limi vaqt va chastota hamda Geometrik va mexanik kattaliklarni o'lchash bo'limi geometriya laboratoriyasining qiyoslash bo'yicha akkreditatsiya doirasi kengaytirildi.

O'zbekiston milliy metrologiya instituti tomonidan metrologiya xizmatlari (*o'lchash vositalarini kalibrlash, qiyoslash, metrologik sinovlardan o'tkazish va metrologik natijalarni e'tirof etish*) eksporti borasida xizmatlar ko'rsatildi.

Rivojlanish istiqbollari:

- BIPMga to'laqonli a'zo sifatida qo'shilish;
- 9 ta etalon xarid qilish choralari ko'rish;
- CMC-qatorlar soni 25 taga yetkazish;
- 6 ta yangi solishtirish loyihalarida ishtirok etish;
- OIML hujjatlari asosida 16 ta standart va 8 ta ma'nan eskirgan o'rniga yangi tahrirdagi milliy standartlar ishlab chiqish;
- O'zbekiston milliy metrologiya instituti negizida ilmiy tadqiqotlar uchun “Kvant metrologiyasi markazini barpo etish” loyihasini amalga oshirish bo'yicha ishlarni boshlash.

”O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” DM da ko‘rsatilayotgan xizmatlar holati:

2025-yil davomida sinov laboratoriyalarni akkreditasiya talablariga moslashtirish, akkreditasiya sohasini kengaytirish, yangi sinov usullarini qamrab olish maqsadida, jami 851 ta (*shundan, dekabrda 74 ta*) o‘lchash, sinash va yordamchi vositalari xarid qilindi.

385 ta shartnoma asosida kimyoviy reaktiv va standart namunalar, 304 ta yordamchi jihoz hamda 46 ta o‘lchash vositasi 116 ta sinov uskunasi.

140 612 ta (*dekabrda 19 020 ta*) sinov bayonnomalari rasmiylashtirildi.

160 ta (*dekabrda 8 ta*) maxsulotlar sifatsizligi aniqlandi.

Oziq-ovqat 85 ta , Yengil sanoat 5 ta , Metal 4 ta , Elektrotexnika 30 ta , Qurilish 31 ta , Kimyo 1 ta , O‘yinchoq 4 ta mahsulotlar yo‘nalishlar kesmida yaroqsiz deb topildi.

Rivojlanish istiqbollari:

Barcha laboratoriyalarda Akkreditasiya sohasi kengaytirilib, 2 200 ta sinov usullariga (*shu jumladan, “Yuksalish” KSZ hududida tashkil etilgan laboratoriyalar majmuasining akkreditatsiya sohasini 600 ta sinov usuliga kengaytirish*) yetkaziladi.

Yengil sanoat, oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi, polimer, qurilish, elektrotexnika yo‘nalishlarida Koreya, Turkiya, Rossiya va Belorussiya provayder laboratoriyalari bilan 20 ta xalqaro solishtiruvlarda ishtirok etiladi;

Sinov laboratoriyalarida mavjud sinov uskunalari va o‘lchash vositalarini O‘zMMIdan kalibrlash imkoniyatlari o‘rganiladi va qamrab olinmagan sohalar bo‘yicha xalqaro metrologiya institutlaridan kalibrlash choralari ko‘riladi;

Markaz va uning hududiy filiallarida 21 ta yangi yo‘nalishdagi laboratoriyalar tashkil etiladi.

”O‘zbekiston akkreditatsiya markazi” DM da ko‘rsatilayotgan xizmatlar holati:

2025-yilda jami 79 ta MBO va MX akkreditatsiyadan o‘tkazildi (jami 602 ta mavjud), jumladan:

40 ta sinov laboratoriyalari (307 ta);

15 ta qiyoslash laboratoriyalari (113 ta);

11 ta mahsulotlarni sertifikatlashtirish organi (94 ta);

6 ta menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi (32 ta);

3 ta kalibrlash laboratoriyalari (29 ta);

1 ta standart namunalar ishlab chiqaruvchisi (2 ta);

1 ta tibbiyot laboratoriyasi (3 ta);

1 ta malakani tekshirish provayderi (3 ta);

1 ta xodimlarni sertifikatlashtirish organi (2 ta) akkreditatsiyadan o‘tkazildi.

Markazda jami 194 nafar (shtatda — 28, jalb etiladi — 166) baholovchi va texnik ekspertlar mavjud bo‘lib, shundan 14 ta akkreditatsiya sxemalari bo‘yicha 53 nafar baholovchilar (shtatda — 24, jalb etiladi — 29) va 14 ta yo‘nalishlarda 141 nafar texnik ekspertlar (shtatda — 4, jalb etiladi — 137) MBOlarni akkreditatsiyadan o‘tkazish jarayonlariga jalb etilmoqda.

Markazning LMS tizimida 10 ta o'quv video-treninglar (ISO/IEC 17029, ISO/IEC 17043, ISO 17034) joylashtirilgan bo'lib, 2642 nafar kuzatuvchi foydalangan.

Markaz tomonidan tashkil etilgan 19 ta (ISO/IEC 17025, ISO/IEC 17029, ISO/IEC 17065, ISO/IEC 17020, ISO/IEC 17043, ISO 17034, ISO 15189) o'quv-seminar treninglarda jami 508 nafar baholovchi, texnik ekspert va boshqa mutaxassislar ishtirok etdi.

Markazning 18 nafar mutaxassislari xorijiy davlatlarda (Xitoy – 12 nafar, Turkiya –3 nafar, Italiya – 2 nafar, Yaponiya – 1 nafar) ISO/IEC 17025, ISO/IEC 17065, ISO/IEC 17020 va ISO 17034 xalqaro standartlar bo'yicha malaka oshirdi.

Milliy akkreditatsiya tizimida xalqaro standartlarga muvofiq malakani tekshirish provayderlarini (ISO/IEC 17043), standart namuna ishlab chiqaruvchilarni (ISO 17034), tibbiy laboratoriyalarni (ISO 15189) hamda inspeksiya faoliyatini (ISO/IEC 17020) xalqaro standartlari bo'yicha akkreditatsiya qilishni yo'lga qo'yish uchun yangi akkreditatsiya sxemalari joriy qilindi.

Joriy qilingan yangi sohalar doirasida Milliy akkreditatsiya tizimida ISO/IEC 17043 standartiga 3 ta malaka tekshirish provayderi, ISO/IEC 17020 standartiga 14 ta (mavjud bo'lgan) inspeksiya organi, ISO 15189 standartiga 3 ta tibbiy laboratoriya, ISO 17034 standartiga 2 ta standart namuna ishlab chiqaruvchi akkreditatsiya qilindi.

O'zbekiston akkreditatsiya markazi tomonidan 2025-yilda erishilgan eng asosiy natijalar:

1. IAF ko'ptomonlama tan olish kelishuvi (IAF MLA) doirasida O'zbekiston akkreditatsiya markazi 2025-yil yanvaridan quyidagi 2 ta yangi xalqaro standartlar bo'yicha e'tirof etildi:

- ISO 13485 Tibbiy buyumlar ishlab chiqaruvchilar uchun sifat menejmenti tizimi;

- ISO/IEC 27001 Axborot xavfsizligini menejmenti tizimi.

2. Tadbirkorlik subyektlariga qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida 2025-yil iyuldan quyidagilarni nazarda tutuvchi akkreditatsiyadan o'tkazishdagi talablar soddalashtirildi:

- akkreditatsiya obyekti tomonidan akkreditatsiyadan o'tishda kamchiliklarni bartaraf etish muddati to'rt oygacha etib belgilandi;

- sinov, kalibrlash va tibbiy laboratoriya (markaz) yoki metrologiya xizmatining joylashgan joyi o'zgargan taqdirda, takroriy akkreditatsiyadan o'tkazish o'rniga soddalashtirilgan baholash tartibni joriy etidi.

3. O'zbekiston akkreditatsiya markazi Xitoy muvofiqlikni baholash bo'yicha milliy akkreditatsiya xizmati (CNAC), Belarus davlat akkreditatsiya markazi (BGSA) hamda Eron Milliy Akkreditatsiya Markazi (NACI) davlatlarining akkreditatsiya idoralari bilan Anglashuv Memorandumlari imzolandi.

4. O'zbekiston akkreditatsiya markazi 2025-yil noyabrdan Global akkreditatsiya xamkorligi – Global Accreditation Cooperation (GLOBAK)ga to'laqonli a'zoliqi tasdiqlandi.

5. Global sifat infratuzilmasi indeksining – Global Quality Infrastructure Index (GQII) 2025-yilgi natijalariga ko'ra O'zbekiston akkreditatsiya xizmati bo'yicha 185ta davlatlar o'rtasida 29-o'rinni egalladi.

“O'zbekiston standartlar instituti” DM da ko'rsatilayotgan xizmatlar holati:

2025-yilda Vazirlik, idora va tarmoq uyushmalari hamda tadbirkorlik sub'ektlariga 11 ta xizmat turlari bo'yicha ish va xizmatlar amalga oshirildi.

Jumladan:

Me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash bo'yicha:

Tadbirkorlik va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga 6327 ta standart foydalanish uchun yetkazildi.

4463 ta GOST, 140 ta GOST R, 1051 ta O'zMSt va 673 ta Xalqaro standartlar bilan uyg'unlashgan milliy standartlar (shundan 334 ta O'zMSt ISO, 96 ta O'zMSt YEN, 135 ta O'zMSt IEC, 58 ta O'zMSt ASTM va 50 ta O'zMSt EK OOH -).

Transport vositalariga VIN (WMI) kodini berish bo'yicha:

Korxona va tashkilotlarning murojaatlariga asosan transport vositalariga 23 dona identifikatsiya VIN (WMI) kodi berildi.

Shtrix kod berish bo'yicha:

Korxona va tashkilotlarning murojaatlariga asosan davlat reestriga kiritish uchun 1437 ta buyurtma qabul qilinib, ishlab chiqarilgan maxsulotlarga 10062 dona shtrix kod asl nusxa maketlari tayyorlab berildi.

Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash yo'nalishida:

Tadbirkorlik sub'ektlarining sifatga mas'ul bo'lgan 20 000 nafar mutaxassislarning malakasini oshirish borasida joriy yilning yanvar-aprel oylarida (1-bosqich) hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2025-yil 9-iyundagi 26/1-4124-son topshirig'iga asosan 2025-yil iyul-dekabr oylarida (2-bosqich) umumiy 14 ta hududda o'quv kurslari tashkil etildi va natijada jami 20 892 nafar mutaxassislar ishtiroki ta'minlandi.

O'zbekiston standartlar instituti kadrlar malaka oshirish va qayta tayyorlash bo'limi tomonidan hisobot davrida sohadagi barcha yo'nalishlar bo'yicha malaka oshirish kurslari tashkil etildi.

Tadbirkorlarga uslubiy ko'mak ko'rsatish yo'nalishida:

“STANDART” ilmiy-texnik jurnalini elektron shaklini 6 400 ta tadbirkorlik sub'ektlariga yetkazib berildi.

Savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf etish yo'nalishida:

Jahon savdo tashkiloti talablari va GSP+ doirasida vazirlik va idoralarning buyurtmasiga muvofiq Agentlikdan belgilab berilgan KPI eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini bajarish rejasiga asosan amalda 2491 ta xalqaro standartlar asl tilda qabul qilindi.

Soha tarmoqlari bo'yicha 3 094 ta standartlarning Jahon savdo tashkilotiga mosligini ko'rib chiqilishi ta'minlandi.

Bulardan: Amaldagi uyg'unlashgan standartlar mavjudligi uchun bekor qilinadigan standartlar 1224 ta, amalga kiritish uchun topilgan analog standartlar 889 ta, analogi topilmagan standartlar 1867 ta.

Standartlashtirish yo'nalishida:

421 ta tashkilot standartlari (Ts) o'rniga 50 ta (*rejaga nisbatan 108,7%ga*) milliy standartlar ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Standartlarni ekspertiza qilish yo'nalishida:

601 ta milliy standartlar loyihalari ekspertizadan o'tkazildi.

"Yashil" standartlarni qabul qilish bo'yicha:

7 ta "Yashil" standartlarni qabul qilinishi ta'minlandi.

Standartlarni parsing qilish va milliy axborot tizimining standartlar fondi moduli (fond.tris.uz) platformasiga joylash bo'yicha:

Standartlarni parsing qilish va milliy axborot tizimining standartlar fondi moduli platformasiga 7160 ta standartlar joylashtirildi.

Standartlarning yagona axborot bazasi yo'nalishida:

Fondagi milliy standartlar salmog'ini Xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish darajasi amalda 43,9 %ga yetkazildi.

Texnik qo'mitalar faoliyatini muvofiqlashtirish yo'nalishida:

36 ta texnik qo'mita faoliyati to'liq yo'lga qo'yilib, texnik qo'mita a'zolari soni 899 nafarga yetkazildi.

Davlat idoralari vakillari – 366 nafar, xususiy biznes vakillari – 292 nafar, Oliy ta'lim muassasalari vakillari – 241 nafar .

135 ta Davlatlararo texnik qo'mita (MTK) faoliyatida 102 nafar vakolatli vakillar, 55 nafar kuzatuvchilar, 15 nafar ekspertlar — jami 172 ta vakil mazkur davlatlararo texnik qo'mitalarda O'zbekiston Respublikasi nomidan faoliyat yuritmoqdalar.

Davlat idoralari vakillari – 72 nafar, xususiy biznes vakillari – 76 nafar, Oliy ta'lim muassasalari vakillari 24 nafar.

Hisobot davrida 200 dan ortiq loyiha ko'rib chiqilib, takliflar kiritildi.

Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) texnik qo'mitalari faoliyatida 44 nafar mutaxassis "to'laqonli", 263 nafar mutaxassis "kuzatuvchi" maqomida ishtirok etishi ta'minlandi.

Hisobot davrida 75 ta ISO texnik qo'mitasi doirasida jami 148 ta loyiha ko'rib chiqilib, ovoz berildi. (48 ta loyiha o'rganish jarayonida).

Xalqaro Elektrotexnika Qo'mitasi (IEC) texnik qo'mitasi faoliyatida 4 nafar mutaxassislar "to'laqonli" a'zo maqomida ishtirok etmoqda.

Hisobot davrida mutaxassislar tomonidan 98 ta xalqaro standart loyihalari ko'rib chiqilib, takliflar kiritildi.

Vazirlik va idoralar qoshida (Standartlar institutining 18.02.2025-yildagi 55/STQ-son buyrug'i bilan STQ 11 "Statistik usullarini qo'llash" sohasida, 26.03.2025-yildagi 76/STQ-son qarori bilan "O'zbekkimyomash zavodi" aksiyadorlik jamiyati huzurida STQ 14 "Idishlar va uskunalar" sohasida, 13.05.2025-yildagi 99/STQ-son qarori bilan STQ 16

“Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi” sohasida, 25.08.2025-yildagi 107/STQ-son qarori bilan STQ 28 “Putur yetkazmasdan tekshirish” sohasida, hamda 18.11.2025-yildagi 109/STQ-son qarori bilan STQ 34 “Energiya samaradorligi” sohasida,) jami 5 ta standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalar tashkil etildi.

Rivojlanish istiqbollari:

1. Xalqaro va Yevropa standartlarni asl tilida qabul qilish.

1700 ta Xalqaro va Yevropa standartlarini asl tilida qabul qilish.

2. Standartlarni parsing qilish va milliy axborot tizimining standartlar fondi moduli (fond.tris.uz) platformasiga joylash.

1500 ta standartni “parsing” qilish jarayonini amalga oshirish.

3. Soha va tarmoqlar bo'yicha amaldagi standartlarning Jahon savdo tashkiloti talablariga mosligini ko'rib chiqish.

4106 ta standartlarni tahlil qilib, Jahon savdo tashkiloti talablariga mosligi to'g'risida xulosalar asosida 2027-yil uchun Xalqaro standartlarni amalga kiritish bo'yicha Standartlashtirish dasturini shakllantirish.

4. Xalqaro texnik qo'mitalarga tarmoqlardan mutaxassislarning a'zolicini ta'minlash.

Xalqaro texnik qo'mitalarga tarmoqlardan 30 nafar mutaxassislarni a'zolicini ta'minlash.

Tarmoqqa tegishli kasblar bo'yicha mahalliy kadrlar tayyorlash tizimining tahlili.

Texnik jihatdan tartibga solish agentligi huzuridagi Standartlar institutining qayta tayyorlash va malaka oshirish markazi standartlashtirish, mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish, metrologiya va sifatni boshqarish bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlashni olib bormoqda. Ta'lim berish yakunlangandan so'ng mutaxassislarga standartlashtirish, sertifikatlashtirish, metrologiya sohasida kasb faoliyatini olib borish huquqini tasdiqlaydigan, kasbiy qayta tayyorlash sohasida belgilangan namunadagi guvohnoma taqdim etiladi.

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi texnik jihatdan tartibga solish standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha milliy tashkilot sifatida xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi.

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi quyidagi xorijiy davlatlarning standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha milliy tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi:

MDH davlatlari, Misr Arab Respublikasi, Eron Islom Respublikasi, Litva Respublikasi, Slovakiya Respublikasi, Turkiya, Singapur Respublikasi, Janubiy Koreya, Yunoniston (Gretsiya), Germaniya Federativ Respublikasi, Chexiya Respublikasi, Buyuk Britaniya, Vengriya, Vyetnam, Hindiston Respublikasi, Indoneziya Respublikasi, Ispaniya Qirolligi, Xitoy Xalq Respublikasi, Latviya Respublikasi, Polsha Respublikasi, Fransiya.

Sohada faoliyat ko'rsatadigan xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar ro'yxati

Tashkilot nomi
ISO – Xalqaro standartlashtirish tashkiloti
IEC – Xalqaro elektrotexnika komissiyasi
CEN – Yevropa standartlashtirish qo'mitasi
CENELEC – Elektrotexnika va elektronika sohasida Yevropa standartlashtirish qo'mitasi
ETSI – Telekommunikatsiya sohasida Yevropa standartlashtirish instituti
ITU – Internatsional Telecommunication Union – Xalqaro elektr-aloqa birlashmasi
OIML – Qonunchilik metrologiyasi xalqaro tashkiloti
BIPM – Xalqaro o'lchov va tarozilar Byurosi
WELMEC – G'arbiy Yevropa qonunchilik metrologiyasi tashkiloti
EURAMET – Yevropa etalonlar hamkorligi
EOQ – Yevropa sifat tashkiloti
EA – Yevropa akkreditatsiya hamkorligi
UNECE – BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi
ILAC – Laboratoriyalar akkreditatsiyasi xalqaro hamkorligi
APLMF – Osiyo-Tinch okeani qonunchilik metrologiyasi Forumi
IFAN – Standartlar foydalanuvchilarini xalqaro federatsiyasi
COPANT – Panamerika standartlar komissiyasi
ASIS – AT texnikasi sohasida standartlarni joriy etish uyushmasi
IAF – Xalqaro akkreditatsiya qilish forumi

Kadrlar tayyorlash yuzasidan rivojlangan davlatlar tajribalari.

Yevropada standartlashtirish sohasida birinchi kurs 1930-yilda o'qitila boshlagan.

Keyinchalik Germaniyaning DIN-Standartlashtirish bo'yicha instituti asoschilaridan biri professor Kienzlening Berlin kursi mashhur bo'lgan.

AQSHda 1980-yillarning boshidan Kolorado universitetida aloqa standartlari bo'yicha aspirantura o'qitila boshlandi, 1999-yilda esa AQSH katolik universitetida strategik standartlashtirish kursi o'qitila boshlangan.

Janubiy Koreyada 2004-yilda 47 ta universitetni qamrab olgan universitetlarni standartlashtirish dasturi tashkil etilgan.

2003-yilda 2 ta Yevropa va 4 ta Osiyo universitetlarini o'z ichiga olgan Yevropa-Osiyo qo'shma dasturi ishga tushirilgan.

Yaponiya Standartlar Assotsiatsiyasi (JSA) Iqtisodiyot, Savdo va Sanoat Vazirligi ko'magida o'quv qo'llanmalarini onlayn nashr qilish boshlangan va innovatsiyalar va biznesni boshqarish bo'yicha universitet "Standartlashtirish asoslari" va "Mashinasozlikda standartlar", 2006-yilda "Elektronika va elektron muhandislik standartlari", 2007-yilda "Mashinasozlikda xavfsizlik standartlari" va "Kimyoda xavfsizlik standartlari" kursini boshlagan.

Turkiyaning Turk Standartlari instituti (TSE) 1954-yil 7-oktyabrda Ittifoqqa aloqador avtonom muassasa sifatida tashkil etilgan. 1960-yil 22-noyabrda 132-sonli

Tashkilot to'g'risidagi qonunga muvofiq, TSE fuqarolik qonunchiligi qoidalariga muvofiq boshqariladigan yuridik shaxs maqomini oldi.

Turk standartlari instituti va Agentlik tomonidan standartlashtirish, sertifikatlashtirish va mutaxassislar malakasini oshirish bo'yicha rejalar tasdiqlanib soha mutaxassislarini doimiy ravishda malakalari oshirib kelinmoqda.

Shuningdek, Agentlik va xorijiy tashkilotlar o'rtasida texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida tuzilgan quyidagi hamkorlik to'g'risidagi bitim va memorandumlarda sohaga malakalarni kadrlarni tayyorlash yuzasidan kelishuvlarga erishilgan.

Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Ozarbayjon Respublikasi hukumati o'rtasida standartlashtirish, metrologiya va sertifikatsiya sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi bitim;

O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Belarus Respublikasi Hukumati o'rtasida standartlashtirish, metrologiya va sertifikatsiya sohasida o'zaro hamkorlik to'g'risidagi bitim;

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi bilan Britaniya standartlari instituti o'rtasida o'zaro hamkorlik bitim;

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi bilan Vengriya savdoni litsenziyalash idorasi o'rtasida metrologiya sohasida texnik hamkorlik to'g'risida anglashuv memorandum;

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi bilan Vengriya standartlar instituti o'rtasida standartlashtirish va sertifikatlashtirish sohalarida hamkorlik to'g'risida bitim;

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi bilan Vyetnam standartlar va sifat boshqarmasi o'rtasida standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va akkreditatsiya sohalarida hamkorlik to'g'risida anglashuv memorandum.

Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash, metrologiya yo'nalishlari bo'yicha mahalliy kadrlar tayyorlash tizimining tahlili.

Kadrlar tayyorlash tizimi uchta asosiy jihatdan – asosiy tayyorgarlik, malaka oshirish va qayta tayyorlashdan iborat.

Kadrlar zaxirasini tayyorlashning dastlabki bosqichi ixtisoslashtirilgan muassasalar (kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari o'quv yurtlari) tomonidan amalga oshiriladigan jarayon hisoblanadi.

Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash, metrologiya yo'nalishlari bo'yicha kadrlarni tayyorlash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Xodimlarni boshqarishning umumiy strategiyasini, maqsadlarini aniqlash, kadrlar ishining mafkurasi va tamoyillarini shakllantirish;

Mavjud xodimlarni hisobga olgan holda kadrlar ehtiyojlarini rejalashtirish.

Xodimlarni tanlash va boshqarish;

Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash.

Agentlik, texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash, metrologiya yo'nalishlari uchun kadrlar tayyorlab berishda quyidagi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qiladi:

Toshkent davlat texnika universiteti;

Toshkent kimyo texnologiya instituti;

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti;

Toshkent davlat agrar universiteti;

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti;

Toshkent shahridagi Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti;

Toshkent shahridagi "MEI" milliy tadqiqot universiteti;

Toshkent davlat transport universiteti;

Oltiariq sanoat texnikumi;

Ish beruvchi tashkilotlar haqida ma'lumotlar.

Agentlik tuzilmasida 5 ta tizim tashkilotlari mavjud bo'lib, mazkur tashkilotlar Agentlik tizimidagi texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash va metrologiya yo'nalishlari bo'yicha ish beruvchi tashkilotlar hisoblanadi.

Jumladan:

"O'zbekiston ilmiy sinov va sifat nazorati markazi" davlat muassasasi;

"O'zbekiston milliy metrologiya instituti" davlat muassasasi;

"O'zbekiston akkreditatsiya markazi" davlat muassasasi;

"O'zbekiston standartlar instituti" davlat muassasasi;

Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi.

Shuningdek, texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash va metrologiya sohalari bo'yicha respublika hududida faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish korxonalari ham ish beruvchi tashkilotlar hisoblanadi.

Eng yirik ish beruvchilar qatoridan quyidagi korxonalar o'rin olgan:

Navoiy tog'-metallurgiya kombinati, "O'zbekneftegaz", Olmaliq tog'-metallurgiya kombinati, "O'zavtosanoat", "O'zkimyosanoat", "O'zmetkombinat" korxonalari.

Muammolar va yechimi bo'yicha takliflar.

Mehnat bozori va ta'limning o'zaro integratsiyasi mavjud emas.

Jumladan, ish beruvchi tomonidan malakaga qo'yilgan talablar, malaka talablari, kasb standartlarida aks ettiriladi. Biroq, ta'lim dasturlari ushbu talablarga muvofiq ishlab chiqilishi lozimligi belgilangan bo'lsada, bugungi kunda bu bo'yicha ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlik va aniq mexanizmlar yo'lga qo'yilmagan.

Amaldagi qonunchilikda Milliy malaka tizimining amaldagi qonunchiligida malakalarni baholash markazlarini to'laqonli faoliyat olib borishi uchun yetarlicha vakolatlar belgilab berilmagan.

Jumladan, malakalarni baholash markazlari tomonidan beriladigan sertifikatlar asosida ishga qabul qilish mexanizmlari joriy etilmagan.

Mehnat bozorini monitoring qilish tartibi mavjud emas.

Yuqoridagi muammolarni yechimi sifatida quyidagilar taklif etiladi:

Tarmoq kengashlari bilan ta'lim muassasalarini o'zaro hamkorlikda ishlash mexanizmlarini (bosqichma bosqich) nazarda tutuvchi uslubiy qo'llanma ishlab chiqish;

Malakalarni baholash markazlari tomonidan beriladigan sertifikatlarni ish beruvchilar tomonidan ishga qabul qilish jarayonida amalda tan olinishini nazarda tutuvchi normalarni o'z ichiga olgan normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

Mehnat bozorini monitoring qilish, ya'ni mehnat bozorida dolzarb bo'lgan kasblarni o'rganib borish mexanizmlarini Statistika qo'mitasi bilan birgalikda joriy etish.

Xulosa sifatida.

1. Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash va metrologiya sohalaridagi dolzarb kasblar quyidagilarni tashkil etadi:

- standartlashtirish bo'yicha mutaxassis (texnik);
- sertifikatlashtirish bo'yicha mutaxassis (texnik);
- sifat bo'yicha menejer;
- laborant;
- metrologiya bo'yicha mutaxassis (muhandis, texnik);
- bosh metrolog;
- etalon saqllovchi.

2. Tahlil natijasi shuni ko'rsatdiki "me'yorlovchi (normalovchi)" kasbi bugungi kunda yo'qolib borayotgan kasblardan biri hisoblanadi.

3. Xalqaro tajriba tahlil natijasida sohaga oid yangi paydo bo'lishi kutilayotgan kasblar quyidagilar sifatida belgilash mumkin.

- sifat bo'yicha muhandis;
- standartlashtirish va sertifikatlashtirish bo'yicha muhandis;
- mahsulot sifatini nazorat qiluvchi;
- baholovchi;
- qiyoslovchi;
- sifat nazorati inspektori;
- mahsulotni qayta ishlash sifati nazoratchisi;
- strategik menejer.

Ushbu mutaxassislar quyidagilar bilan shug'ullanadilar:

Mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlar uchun standartlar, normalar, qoidalar va texnik reglamentlarga muvofiqligini ishlab chiqish, joriy etish va monitoring qilish.

Zamonaviy o'lchov vositalaridan foydalangan holda turli fizik kattaliklarni o'lchashni tashkil etish va amalga oshirish.

Ishlab chiqarishni metrologik ta'minlash, shu jumladan o'lchov vositalarini kalibrlash va tekshirish.

Standartlashtirish, metrologiya va sifat menejmenti sohasida maslahat va kadrlar tayyorlash.

Bozorni tahlil qilish, rivojlanish tendensiyalari va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi strategiyalarni ishlab chiqish.

4. Tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) ga muvofiq tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati quyidagi jadvalda keltiriladi:

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
1	11122002	O'zbekiston Respublikasi Agentlik direktori yordamchisi, maslahatchisi
2	11200025	Markaz direktori va o'rinbosarlar
3	12190027	Sertifikatlash va akkreditatsiyalash organi rahbari
4	13211011	Bosh metrolog
5	14390001	Agentlik mudiri (boshlig'i)
6	14390029	Sinov laboratoriyasi mudiri
7	14390030	Standartlash va sifat nazorati boshqarmasi boshlig'i
8	21415001	Etalonlarni saqllovchi
9	21415003	Metrologiya bo'yicha muhandis
10	21415004	Metrologiya bo'yicha professional-mutaxassis
11	31193002	Metrologiya bo'yicha texnik
12	21415005	Metrologiya va standartlashtirish sohasida ilmiy xodimlar va ilmiy tadqiqotchilar
13	21415006	Sifat menejmenti tizimi bo'yicha professional-mutaxassis
14	21415008	Standartlashtirish bo'yicha professional-mutaxassis
15	21462004	Kalibrlovchi
16	31111002	Kimyo sohasida laborant tadqiqotchi
17	31114003	Texnik-metrolog
18	31119002	Laborant (o'rta malakali)
19	31119004	Texnik-laborant (umumiy yo'nalish)
20	31193003	Standartlashtirish bo'yicha texnik
21	72149007	Fizik-mexanik sinovlar laboranti
22	72149043	Xomashyo va tayyor mahsulotlar sifatini aniqlash bo'yicha laborant

5. Yangi ishlab chiqilishi rejalashtirilgan kasbiy standartlar haqida ma'lumot

T/r	Kasbiy standartlar soni	Qamrab olinadigan kasb (lavozim)lar soni	Ishlab chiqiladigan yil va oy
1.	5	8	2025-yil, dekabr
2.	5	8	2026-yil, dekabr

6.Tarmoq malaka ramkasi malaka darajalarining tavsifi

Malaka darajasi		Bilim	Ko'nikma (mahorat)	Mas'uliyat va mustaqillik	Kasbiy faoliyat turlari va lavozim (kasb)lar kodi hamda nomi
Milliy malaka ramkasi (MMR)	Tarmoq malaka ramkasi (TMR)				
1	1	O'quv yoki kasbiy faoliyat sohasi bo'yicha elementar va boshlang'ich umumiy bilimlar	Belgilangan qoidalarga muvofiq standart va oddiy vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar	O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; O'zganing bevosita nazorati va kuzatuv ostida ishlash	
2	2	O'quv yoki kasbiy faoliyat sohasi bo'yicha umumiy amaliy bilimlar	Standart vazifalarni oddiy qoidalar va instrumentlar yordamida bajarish va yo'riqnoma bo'yicha harakat qilish uchun zarur bo'lgan amaliy va kognitiv ko'nikmalar	O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; Nazorat ostida standart va oddiy vazifalarni bajarish	
3	3	Namuna olish bo'yicha amaldagi texnik reglamentlar, yo'riq-nomalar va me'yoriy hujjatlar; Tahlil uchun namunalarni tayyorlash, saqlash va tashish tartibi. Mehnat xavfsizligi va sanoat gigiyenasi qoidalari;	Texnologik jarayonlardan namunalarni to'g'ri va xavfsiz olish; Namunalarning tozaligi va identifikatsiyasini ta'minlash; Yorliqlash, ro'yxatga olish va laboratoriyaga yetkazish; Oddiy laboratoriya anjomlari va o'lchov vositalarini to'g'ri qo'llash	Ish faoliyatini bevosita rahbar ko'rsatmasi asosida bajaradi; Belgilangan texnologik va xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qiladi; O'z ish joyida tartib, tozalik va jihozlarning to'g'ri ishlatilishi uchun javobgar; Mustaqil qaror qabul qilmaydi, lekin o'z faoliyatida aniqlangan nosozlik yoki og'ishlarni rahbarga xabar qiladi.	71.20 Texnik sinovlar va tahlillar 72149043 Xomashyo va tayyor mahsulotlar sifatini aniqlash bo'yicha laborant 72149007 Fizik-mexanik sinovlar bo'yicha laborant


		Asbob-uskunalar va idishlarning ishlatilish tartibi.			
4	4	Tahlillar va sinovlar o'tkazish usullari hamda ularni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar; Laboratoriya asboblari va o'lchov vositalarining tuzilishi, ishlash prinsipi va ekspluatatsiya qoidalari; Tahlil natijalarini qayd etish va hujjatlashtirish tartibi; Sifat nazorati va xavfsizlik me'yorlari.	Oddiy laboratoriya sinovlari va tahlillarni bajarish; O'lchov natijalarini aniqlik bilan qayd etish va hisobot tayyorlash; Asbob-uskunalarining soz holatini nazorat qilish; Mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya etish.	Rahbar nazorati ostida ish jarayonining sifatini ta'minlaydi; Sinov, o'lchov va tahlil natijalari to'g'riligi uchun javob beradi; Laboratoriya jihozlari va o'lchov asboblariidan to'g'ri foydalanish uchun mas'ul; Ish jarayonida mustaqil tarzda oddiy muammolarni hal qiladi, lekin murakkab masalalarda mutaxassisga murojaat qilish.	
5	5	Laboratoriya sinovlari, o'lchovlar va tahlillarni o'tkazish bo'yicha me'yoriy-uslubiy hujjatlar; Asbob-uskunalarini tayyorlash, tekshirish va ishlatish qoidalari; Tahlil natijalarini qayta ishlash va tahlil qilish usullari; Sifatni nazorat qilish tizimining asoslari.	Mustaqil ravishda tahlillar va sinovlarni o'tkazish; Laboratoriya jurnallari va hisobotlarini yuritish; Asboblarni kalibrlash va texnik xizmat ko'rsatish; Sinov natijalarini me'yoriy hujjatlarga muvofiq rasmiylashtirish.	Belgilangan usullar va standartlarga muvofiq sinov va o'lchovlarni mustaqil amalga oshiradi; Ish natijalarining ishonchliligi va hujjatlashtirilishi uchun javobgar; Laboratoriya xavfsizligi, sifat nazorati va metrologik aniqlikni ta'minlashda shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi; Kichik mutaxassislar ishini yo'naltiradi va ularning faoliyatini nazorat qilishda ishtirok etadi.	71.20 Texnik sinovlar va tahlillar 72.10 Tabiiy fanlar va injeneriya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va eksperimental ishlanmalar 74.90 Boshqa toifalarga kiritilmagan, professional, ilmiy va texnik faoliyat 31111002 Kimyo sohasida laborant tadqiqotchi 21415004 Metrologiya bo'yicha professional-mutaxassis

					31193002 Metrologiya bo'yicha texnik 31119004 Texnik-laborant (umumiy yo'nalish) 31193003 Standartlashtirish bo'yicha texnik
6	6	Milliy va xalqaro standartlar tizimi (ISO, IEC, GOST va boshqalar); Metrologiya, o'lchovlar aniqligi, sinov va sertifikatlashtirish asoslari; Texnik reglamentlar va texnik hujjatlarni ishlab chiqish tartibi; Ishlab chiqarishda sifat nazoratini tashkil etish usullari.	Sinov, tahlil va o'lchov jarayonlarini tashkil etish; Ishlab chiqarish jarayonida sifat ko'rsatkichlarini nazorat qilish; Texnik hujjatlar va standartlarni ishlab chiqish va tahlil qilish; O'lchov asboblarni kalibrash, sinov natijalarini baholash; Elektron ma'lumot tizimlarida ishlash (masalan, reyestr, akkreditatsiya bazalari).	Laboratoriya yoki bo'lim faoliyatini mustaqil tashkil etadi va natijalar sifatiga javob beradi; Sinovlar, kalibrash, sertifikatlash va o'lchov jarayonlarida metrologik izchillikni ta'minlash uchun javobgar; Texnik hisobotlar, sifat tizimi hujjatlarini tayyorlaydi va ularning to'g'riligi uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi; O'z faoliyati doirasida qaror qabul qilishda mustaqildir, lekin strategik yo'nalishlarda rahbarga hisobot beradi.	71.20 Texnik sinovlar va tahlillar. 72.10 Tabiiy fanlar va injeneriya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va eksperimental ishlanmalar 74.90 Boshqa toifalarga kiritilmagan, professional, ilmiy va texnik faoliyat 21415003 Metrologiya bo'yicha muhandis 21415001 Etalonlarni saqllovchi 21415005 Metrologiya va standartlashtirish sohasida ilmiy xodimlar va ilmiy tadqiqotchilar 21462004 Kalibrlovchi 21415006 Sifat menejmenti tizimi bo'yicha professional-mutaxassis 21415008 Standartlashtirish bo'yicha professional-mutaxassis

7	7	Texnik tartibga solish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasidagi qonunchilik asoslari; Milliy va xalqaro standartlarni ishlab chiqish va joriy etish tartibi; Laboratoriyalarni akkreditatsiyadan o'tkazish tamoyillari; Innovatsion texnologiyalarni baholash va sifat tizimlarini boshqarish usullari.	Tahlil va sinov laboratoriyalarining ishini muvofiqlashtirish; Standartlarni ishlab chiqish, ekspertiza va muvofiqlik bahosini tashkil etish; Metrologik ta'minotni boshqarish va takomillashtirish; Sifat menejmenti tizimlarini joriy etish va auditini tashkil etish; Xodimlar malakasini oshirish va texnik loyihalarni boshqarish.	Laboratoriya, metrologiya yoki standartlashtirish xizmatining strategik faoliyatini boshqaradi; Sifat menejmenti, akkreditatsiya va muvofiqlik baholash jarayonlarida yakuniy natijalar uchun javobgar; Bo'lim xodimlari faoliyati uchun tashkiliy va kasbiy mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi; Qarorlarni mustaqil ravishda qabul qiladi, ularning natijalari uchun rahbariyat oldida javob beradi; Resurslardan samarali foydalanish va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha mustaqil nazorat yuritadi.	71.20 Texnik sinovlar va tahlillar 72.10 Tabiiy fanlar va injeneriya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va eksperimental ishlanmalar 74.90 Boshqa toifalarga kiritilmagan, professional, ilmiy va texnik faoliyat. 14390001 Agentlik mudiri (boshlig'i) 13211011 Bosh metrolog 14390029 Sinov laboratoriyasi mudir 12190027 Sertifikatlash va akkreditatsiyalash organi rahbari 14390030 Standartlashtirish va sifat nazorati boshqarmasi boshlig'i 11122002 O'zbekiston Respublikasi Agentlik direktori yordamchisi, maslahatchisi
8	8	Texnik tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya va sifatni boshqarish sohasidagi milliy va xalqaro siyosat; Strategik boshqaruv, innovatsion rivojlanish	Tarmoq bo'yicha strategik qarorlar qabul qilish va sifat tizimlarini boshqarish; Laboratoriyalar, metrologiya xizmatlari va sifat nazorati tizimlarini	Tarmoq yoki milliy miqyosdagi standartlashtirish, metrologiya va texnik tartibga solish siyosatini shakllantirish uchun javobgar; Qabul qilinadigan strategik va boshqaruv qarorlarining natijalari uchun davlat yoki tashkilot	71.20 Texnik sinovlar va tahlillar 72.10 Tabiiy fanlar va injeneriya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va eksperimental ishlanmalar

		va sifat tizimlarini integratsiyalash asoslari; Akkreditatsiya va sertifikatlashtirish bo'yicha xalqaro talablar (ISO/IEC 17025, ISO 9001 va boshqalar); Ilmiy-tadqiqot va tahliliy faoliyatni boshqarish metodologiyasi.	rejalashtirish va rivojlantirish; Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, yangi standartlarni joriy etish; Innovatsion loyihalar va yangi texnologiyalarni tatbiq etish; Rahbarlik, monitoring va natijalarni tahlil qilish bo'yicha samarali boshqaruv faoliyati olib borish.	miqyosida javobgarlikni o'z zimmasiga oladi; Yirik loyihalar va xalqaro hamkorlik dasturlarini mustaqil boshqaradi; Qarorlarni mustaqil ravishda qabul qiladi, natijalar uchun yuqori darajada javob beradi; Kadrlar salohiyatini rivojlantirish, malaka tizimini takomillashtirish va sifat infratuzilmasi barqarorligini ta'minlash uchun shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.	74.90 Boshqa toifalarga kiritilmagan, professional, ilmiy va texnik faoliyat 11200025 Markaz direktori va o'rinbosarlar
--	--	--	--	--	---

7. Tarmoqning funksional xaritasi



8. Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxona)lar to'g'risida ma'lumot

№	Xodim to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familyasi, ismi, otasining ismi
1	O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi kotibi	Matkarimov Sur'atbek Bekturdievich
2	"Navoiyazot" AJ bo'lim boshlig'i	Sayidova Shaxlo Toshtemirovna
3	"Sho'rtan gaz kimyo majmuasi" MChJ metrologiya yetakchi muhandisi	Tilovov Elyor Urol o'g'li
4	"Correct Results Group" MChJ SO rahbari o'rinbosari	Azimov Azamjon Abdumannopovich
5	"ATTEST" MChJ direktor o'rinbosari	Ermatov Nosir Islamjanovich
6	"Texnopark" MChJ sifat bo'yicha muhandisi	Mirzoxidov Baxtiyor Muradjanovich
7	Toshkent davlat texnika universiteti kafedrası dotsenti, PhD	Masharipov Shodlik Masharipovich
8	Toshkent davlat texnika universiteti kafedrası dotsenti, PhD	Maxmudjanov Mirolim Muhammad o'g'li
9	O'zbekiston Standartlar instituti direktor o'rinbosari	Muradov Jo'rabek Norpulatovich
10	"O'zbekiston ilmiy sinov va sifat nazorati markazi" davlat muassasasi bo'lim boshlig'i	Buzrukxanova Gulnoza Anvardjanovna
11	"O'zbekiston milliy metrologiya instituti" davlat muassasasi bosh mutaxassisi	To'raqulov Anvarali N'emat o'g'li
12	"O'zbekiston akkreditatsiya markazi" davlat muassasasi bo'lim boshlig'i	Asqarov Azizjon Xasanovich
13	"O'zbekiston standartlar instituti" davlat muassasasi, bo'lim boshlig'i	Mixlieva Nargiza Toyirovna
14	Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi bo'lim boshlig'i	Tagayeva Ulyana Jumanazarovna

Mazkur TMR Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash, metrologiya sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining "09" yanvar 2026-yildagi 1-son yig'ilishida muhokama qilingan.

Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining "16" yanvar 2026-yildagi TMR-015 - son xulosasi.

Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash, metrologiya sohasi

TARMOQ MALAKA RAMKASI



Standartlashtirish va texnik jihatdan
tartibga solish sohalarida kasbiy
malakalarni rivojlantirish bo'yicha
tarmoq kengashi

